Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320286

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

QISQA MUDDATLI ORALIQDA FIRMA FAOLIYATI XARAJATLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO`LLARI

SAPAYEV DILSHOD XUSHNUDOVICH,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.(PhD)
+99897-766-65-15
RUSTAMOV HAYOT NARZULLO O'GLI,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Ekonometrika mutaxassisligi 2-bosqish magistri
+99890-041-27-10

Kirish

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillardagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin -1,5 barobar, kumush - 3 barobar, uran - 3 barobar oshirish vazifalari belgilandi [1].

Shuningdek, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, to'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish va boshqa shu kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bularning barchasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, buning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan bog`liq bolib, shu sababli tufayli ishlab chiqaruvchi firmalarning faoliyatini chuqur o'rganish, ularning xarajatlari chegaralarini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Sapayev Dilshod Xushnudovich, Rustamov Hayot Narzullo o'gli (2026). Qisqa muddatli oraliqda firma faoliyati xarajatlari va ularni kamaytirish yo`llari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320286

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Milliy iqtsodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxona, firma) o’z faoliyati natijalaridan ko’proq daromad olishga harakat qiladi. Har qanday korxona nafaqat o’zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Firma xarajatlari – bu tovar va xizmatlar yaratish va ularni iste’molchiga yetkazib berish bilan bog’liq bo’lgan sarflardir.

Ishlab chiqarish xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg’i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizasiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug’urtaga ajratmalari, foiz to’lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarfxarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo’lib o’rganish mumkin:

-bevosita ishlab chiqarish xarajatlari

-muomala xarajatlari [2].

Xarajatlar korxona (firma) faoliyatiga baho berishda asosiy yetakchi ko’rsatkich hisoblanadi. Xarajatlar turli–tuman. Tovarlarni yaratish bilan bog’liq sarflar ishlab chiqarish xarajatlaridir. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg’i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug’urtaga ajratmalar, foiz to’lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi [3].

Ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo’lib o’rganish mumkin: bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlari, deganda mahsulotni bevosita ishlab chiqarish uchun qilinadigan barcha sarflar (ish haqi, xom ashyo va material sarflari, amortizatsiya va hokazolar tushuniladi.

Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini tashkil qiladi. Yana bir qismi bu tovarni sotish bilan bog’liq sarflar bo’lib, muomala xarajatlari bo’ladi. Muomala xarajatlari ikki guruhga bo’linadi: qo’shimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlari. Tovarni o’rash, tashish, qadoqlash, saralash, transportga ortish va saqlash xarajatlari qo’shimcha muomala xarajatlariga kiradi. Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlariga yaqin turib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Bu

xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi [4].

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga vaqt omili, ya’ni xarajat qilingandan pirovard natija olinguncha o’tgan davr sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Shunga ko’ra, vaqt omilidan kelib chiqib, xarajatlar qisqa muddatli xarajatlar hamda uzoq muddatli davriy xarajatlarga bo’linadi.

Qisqa muddatli xarajatlarga xom-ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yoqilg’i, energiya, ish haqi, ta’mirlash xarajatlari va hokazolar kiradi.

Uzoq muddatli davriy xarajatlarga bino-inshootlar qurish, mashina-uskunalar olish, ishchi-xizmatchilarni o’qitish, malakasini oshirish kabilar kiradi [5].

Korxona ishlab chiqarish hajmini o’stirish uchun qisqa davrda faqat o’zining o’zgaruvchi xarajatlari miqdorini o’zgartirishi mumkin. Boshqacha aytganda, qisqa davr oraligida korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari o’zgarishsiz qoladi, ishlab chiqarish hajmi jonli mehnat, xom ashyo va boshqa resurslar mikdorini ko’paytirish orqali o’zgarishi mumkin. Bunda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish intensivligini oshirish mumkin [6].

Xarajatlar korxonaga bog’liq bo’lmagan omillar ta’sirida ham o’zgaradi. Masalan, resurslar narxining o’zgarishi, ish haqining o’zgarishi. Korxonaga bog’liq omillar ta’sirini kamaytirish uchun korxona o’ziga bog’liq bo’lgan ichki omillarni harakatga keltirishi zarur bo’ladi. Bu omillar birinchi navbatda isrofgarchilikka yo’l qo’ymaslik, resurslardan tejab-tergab foydalanish kabilardir. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xom-ashyo , asosiy materiallar, yordamchi materiallar va boshqa sarflarni iloji boricha minimal darajaga kamaytirish ham yaxshi natija beradi [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Qisqa muddatli davrdagi firma faoliyati xarajati to’g’risida fikr yuritamiz. Eng avvalo xarajatlar to’g’risida quyidagi tushunchalarni bilishimiz kerak.

Umumiy xarajatlar (TC) - bu ishlab chiqarishda mahsulotning ma’lum hajmini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan umumiy xarajatlar. Umumiy xarajatlari ikki guruhga bo‘linadi: umumiy o‘zgarmas xarajatlar (TFC) va umumiy o‘zgaruvchan xarajatlarlar (TVC).

Umumiy o‘zgarmas xarajatlar (TFC) mahsulot hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish hajmidan qa’tiy nazar bir xil darajada qoladi. Umumiy o‘zgarmas xarajatlar mahsulot hajmining ko’payishi yoki kamayishiga qarab o’zgarmaydi. Firma umuman mahsulot ishlab chiqarmagan taqdirda ham ularning miqdori o’zgarmaydi. Bu turdagi xarajatlarga asosiy vositalarni sotib olish uchun olingan bank ssudalari foizi, amortizatsiya ajratmalari,

sug’urta to’lovlari, ijara haqi va shu kabilar kiradi. Bu xarajatlar mahsulotlar ko’payishi, kamayishi yoki ishlab chiqarmasligidan qat’iy nazar, to’lanishi lozim.

TVC - o‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmi usgan sayin o‘sib boraveradi. Agar firmaning mahsuloti ko’paysa, buning uchun u qo’shimcha ishchi kuchi, xomashyo, elektr quvvati, yonilg’i-moylash materiallarini sarflashiga to’g’ri keladi.

O‘rtacha xarajatlar (AC) - bu firmaning bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulotiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar miqdori. U quyidagi hisoblanadi:

$$AC = \frac{TC}{Q}$$

Q - ishlab chiqarish hajmi.

Miqdoriy jihatdan ishlab chiqarilgan umumiy xarajatlarning mahsulot miqdoriga bo‘lgan nisbatiga teng. O‘rtacha xarajatlar ham o‘rtacha o‘zgarmas AFC va o‘rtacha o‘zgaruvchan AVC xarajatlarga bo‘linadi. Mahsulot hajmi oshgan sayin AFC doimo kamayib boradi, AVC esa o‘sishi yoki kamayishi mumkin.

Chekli xarajatlar (MC) - bu bir birlik qo‘shimcha mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy xarajatlarning o‘sish miqdori. O‘zgarmas xarajatlar o‘zgarmasligi sababli MFC doim nolga teng. Shuning uchun MC bu – chekli o‘zgaruvchan xarajatlar $MC = MVC$.

Chekli xarajatlar quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$MC = \frac{\Delta TC}{\Delta TP}$$

Tahlil va natijalar

Qisqa muddatli oraliqda umumiy, o‘rtacha va chekli ishlab chiqarish xarajatlarining o’zgarishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Qisqa muddatli ishlab chiqarish xarajatlarining o’zgarishi212

Mehnat birligi miqdori (L)	Umummiy mahsulot (Q)	Umumiy xarajat			Chekli (MC)	O’rtacha xarajat		
		O’ zgarmas (TFC)	O’ zgaruvchan (TVC)	Umumiy (TC)		O’ zgarmas (AFC)	O’ zgaruvchan (AVC)	Umumiy (ATC)

212 Ilmiy adabiyotlar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

0	0	1000	0	1000	-	-	-	-
1	15	1000	250	1250	16,7	66,7	16,7	83,3
2	40	1000	500	1500	10,0	25,0	12,5	37,5
3	63	1000	750	1750	10,8	15,9	11,9	27,8
4	76	1000	1000	2000	19,2	13,2	13,2	26,3
5	85	1000	1250	2250	27,8	11,0	14,7	26,5
6	90	1000	1500	2500	60,0	11,1	16,7	27,8
7	91	1000	1750	2750	250,0	11,0	19,2	30,2

1- jadvaldagi chekli xarajat umumiy xarajatning o’sgan qismini (TC) ishlab chiqarilgan mahsulotning o’sgan qismiga Q nisbati bilan aniqlanadi. Masalan, to’rtinchi ishchini ishga yollash natijasida mahsulot miqdori 13 birlikda (76-63) o’sgan, umumiy xarajat bo’lsa, 250 ming so’mga (2000-1750) o’sgan. Demak, bu yerda MC =250/13=19,2 ming so’m bo’ladi. Bu jadval ma’lumotlarini grafikda aks ettirsak, quyidagicha bo’ladi. Grafikdan xulosa qilib ayta olamizki, “a” nuqtasida ya’ni chekli xarajat (MC) eng past bo’lgan nuqtada umumiy xarajat ham “TC” past darajada bo’ladi. Bu ayni shu nuqtada chekli xarajat hisobiga mahsulot ishlab chiqarish mumkin degani.



1-rasm. Qisqa muddatli oraliqda firma xarajatlari egri chizig’i213.

O’zgarmas xarajat (AFC) mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko’payishi bilan pasayib boradi, o’zgaruvchan xarajat bo’lsa, dastlab pasayib boradi va keyinchalik mehnat unumining ko’payishi va qo’shimcha mahsulotning kamayishi qonuniyatiga ko’ra ortib boradi. Shunga ko’ra dastlab o’rtacha umumiy xarajat (ATC) pasayib borsa, keyinchalik o’zgaruvchan xarajatning o’sishi umumiy o’rtacha xarajatning ham o’sishiga olib keladi. Bu grafikdagi A nuqta hisoblanadi. Shu nuqta ayni vaqtda eng kam xarajat nuqtasi hisoblanadi. Bizning misolimizdagi eng kam xarajat talab qilinadigan nuqta agar firma 4-ishchi yollasa, 76 birlikdagi mahsulot ishlab chiqarsa, doimiy va o’zgaruvchan xarajati 2000 ming so’mni tashkil qilgan varianti hisoblanadi, chunki shunda umumiy o’rtacha xarajat (ATC) mahsulot birligi hisobiga 26,3 ming so’mni tashkil qiladi. Shu nuqtada (A) Q=76 ra teng.

Xulosa va takliflar

Agar firma kam mahsulot ishlab chiqarmoqchi bo’lsa, firma o’zining doimiy kapitalidan to’liq foydalanmagan bo’ladi, agar ko’p mahsulot ishlab chiqarmoqchi bo’lsa, qo’shimcha ravishda jalb qilinadigan resurs uchun sarflanadigan xarajat o’zini qoplamaydi. Bunday holatlarda al`ternativ variantlardan foydalanish kerak. Birinchi holatda ishlab chiqarish vositalarini ijaraga berish, ikkinchi holatda resurs sotib olishga mo’ljallangan mablag’ni kreditga berish uchun bankka qo’yish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rish mumkinki, firma tomonidan mahsulot ishlab chiqarishda chekli xarajatlar samaradorligini kamaytirishga e`tibor qaratishi lozim. Ishlab chiqarish xarajatlarining uzluksiz kamayishi bozor iqtisodiyotiining qonuniyatidir. U mehnat unumdorligining to’xtovsiz o’sishi, ishchilarning madaniy, texnikaviy darajasini yuksalishi, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, xo’jalik yuritish usullarining takomillashtirishi bilan ta’minlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishtirishning asosiy yo’llarini quyidagilar:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishtirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish katta ta’sir ko’rsatadi. Yangi texnikani joriy qilish va mahsulot tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish jarayonalarining kamayishiga kompleks ta’sir ko’rsatadi. U moddiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish, buyumlarni tayyorlashga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi;

213 Ilmiy adabiyotlar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

2. Moddiy va pul mablag’larini sarflashda qat’iy iqtisodiy tejamga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Asbob-uskunalarni saqlashga doir sarflarini kamaytirish, material, shuningdek ishlab chiqarish chiqindilaridan maksimal foydalanish;

3. Brak natijasida ro’y beradigan nobudgarchiliklarni kamaytirish, fondlarining samaradorlik darajasini oshirish, ish haqi fondini oqilona sarflash, sex va umumzavod xarajatlarini kamaytirish;

4. Moddiy texnika ta’minotini yaxshilash ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishiga olib keladi. Korxonaning xom-ashyo, material, yoqilgi va energiya yetkazib berishning uzilib qolishi ishlab chiqarish ritmini buzishga, bekor turib qolishlariga va oqibat natijada unumsiz xarajatlarga olib keladi;

5. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga mehnatni tashkil etishda takomillashtirish ta’sir ko’rsatadi. Har qanday texnikadan xatto yangisidan ham ishlab chiqarishni to’g’ri tashkil qilmay turib, maksimal ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik protsesslarni mexanizatsiya va avtomatlashtirish bilan bir qatorda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta e’tibor berish kerak;

6. Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish asosiy yo’nalishlaridan biri bu raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. Raqamli texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xomashyo materiallaridan yoqilgi resurslaridan va boshqa iqtisodiy resurslardan yanada to`laroq foydalanishga va buning oqibatida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/ docs/ 6600413.
2. Sh. Shodmonov, U.V. G’ofurov. Iqtisodiyot nazariyasi. T.«Moliya» 2005 y. 10-45 bet.
3. А.И. Добрынин, Л.С. Тарасевич Экономическая теория, Москва «Питер», 2008. стр. 136-138.
4. A. O’lmasov, A. Vahobov Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya» 2014 y. 128-149 betlar.
5. Pindyck, Robert S., Daniel l. Rubinfeld. Microeconomics. Global Edition. – Copyright 2018, Pearson Education Limited, 2018. P. 787.

6. Низомов А.Б., Намозова Н.Дж., Амонов У.Н. Микроиқтисодиёт. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2000 й. – 21 б.
7. Андреу Мас-Колелл и др. Микроэкономическая теория. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2016. - 630 стр.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti